



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2026-YIL — MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ • E-mail: info@xs.uz

2026-yil 28-aprel, № 83 (9254)

Seshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



FARG'ONA VILOYATI: KENG KO'LAMLI ISLOHOTLAR TARAQQIYOTNING YANGI SAHIFASINI OCHMOQDA

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 27-aprel kuni ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar jarayonlari bilan tanishish uchun Farg'ona viloyatiga tashrif buyurdi.



Farg'ona viloyati azaldan mehnatkash va izlanuvchan xalqi, serhosil zamini bilan tanilgan. Bugun esa bu qadimiy diyori taraqqiyotning yangi sahifasini varaqlamoqda.

innovatsion agromajmualar va mintaqani bir-biriga bog'laydigan transport tizimi viloyatning iqtisodiy va ijtimoiy qiyofasini tubdan o'zgartirmoqda.

Bu o'zgarishlar iqtisodiyotdagi raqamlarda ham, shu zaminda yashayotgan mamnun

chehralarda ham ko'rinadi. Farg'ona bugun investorlar uchun jozibador maydonga, ishlab chiqaruvchilar uchun qulay zamina, xalq uchun esa baxtiyor yashashga arziydigan istiqbolli o'lkaga aylandi.

Viloyatda kechayotgan o'zgarishlar

davlatning e'tibori va xalqning mehnati birlashgan joyda nimalar ro'y berishi chiqaruvchilar uchun qulay zamina, xalq uchun esa baxtiyor yashashga arziydigan istiqbolli o'lkaga aylandi.

Davlatimiz rahbarining tashrifli Qo'qon shahridagi "Yangi O'zbekiston" massivida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari

bilan tanishishdan boshlandi.

Mamlakatimizda aholining yashash sharoitini yaxshilash, zamonaviy shaharsozlik andozalarini hududlarga olib kiritishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada joylarda barpo etilayotgan

"Yangi O'zbekiston" massivlari xalqimiz farovonligini oshirishga qaratilgan yirik ijtimoiy loyihalardan biri bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati suratlari. (Davomi 2-betda).

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING MARG'ILON SHAHRIDAGI «BURHONIDDIN MARG'INONIY» ILMIY-MA'RIFIY VA TURIZM MAJMUASINING OCHILISH MAROSIMIDAGI NUTQI

Assalomu alaykum, muhtaram Farg'ona ahli! Qadri do'stlar!

Bugun qadimiy va betakror Farg'ona zaminida ulkan tarixiy voqea guvoh bo'lib turibmiz. Buyuk Ipak yo'li durdonasi bo'lgan ko'hna Marg'ilon shahrida sizlar bilan birga "Burhoniddin Marg'inoniy" ilmiy-ma'rifiy va turizm majmuasining ochilish marosimida ishtirok etmoqdamiz.

Siz azizlarni, butun Farg'ona viloyati ahlini ana shunday quvonchli voqea, katta bayram bilan chin qalbidan samimiy tabriklayman.

Mana shunday ulug'vor majmua barchamizga muborak bo'lsin!

Farg'ona eliga, butun xalqimizga ko'p yillar davomida xizmat qilsin!

Hurmatli vatandoshlar!

Mehnatkash, oqko'ngil va oliyanob Farg'ona ahliga bo'lgan yuksak hurmat va ehtirom ifodasi sifatida bu zaminda katta-katta ishlarni amalga oshiryapmiz.

Shu maqsadda, avvalo, viloyatni 2030-yilgacha ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturi hayotga izchil tatbiq etilyapti. Jumladan, qadimiy Qo'qon shahrini har tomonlama obod qilib, bu yerda aeroportni qayta tikladik.

Marg'ilon, boshqa shahar va tumanlar, qishloq va mahallalar qiyofasi ham tubdan o'zgarib, ularga Yangi O'zbekiston nafasi kirib bormoqda. Zamonaviy ishlab chiqarish majmualari, ta'lim, tibbiyot va madaniyat maskanlari, IT-parklar, "Yangi O'zbekiston" turarjoy massivlari barpo etilmoqda.

Bularning barchasi aholi uchun qulay mehnat va turmush sharoitlarini yaratish, har bir yurtoshimizga mehr va e'tibor ko'rsatish, inson qadrini oshirishga qaratilgan bilan ahamiyatlidir. Umuman, barcha soha va tarmoqlarda Farg'ona o'zining tajriba maktabiga ega bo'lib borayotgani hammasini kursand qiladi.

Ushbu hudud keyingi paytda nafaqat mamlakatimiz, balki xalqaro miqyosdagi yirik anjumanlarga ham mezbonlik qilmoqda. Qo'qon shahrida xalqaro hunarmandchilik festivali, Rishtonda kuloichilik anjumanini

o'tkazish yaxshi an'anaga aylandi. Markaziy Osiyo mamlakatlarining hududlararo hamkorlik formlari ham Farg'onada muvaffaqiyatli o'tkazilmoqda.

Sizlarga ma'lumki, so'nggi yillarda milliy me'morchilik yechimlarini qo'llagan holda, tarixiy va zamonaviy an'analarni mujassam etgan yirik turistik majmualar barpo etishga alohida e'tibor beryapmiz. Xususan, Samarqandda "Buyuk Ipak yo'li" va Imom Buxoriy majmualari, Xorazmda "Arda Xiva" xalqaro turizm markazi ishga tushirildi.

Yaqinda azim poytaxtimizda o'chilgan, Yangi O'zbekiston durdonasi sifatida e'tirof etilayotgan Islom sivilizatsiyasi markazi ham bu borada ulkan qadam bo'ldi. Ta'kidlash kerakki, ushbu majmua ekspozitsiyasida Farg'ona tarixiga alohida o'rln ajratilgan. Bu maskanda to'rtta yirik portaldan bittasi Qo'qon portali deb ataladi, Birinchi Renessansning buyuk namoyandalari — Ahmad Farg'oniy va Burhoniddin Marg'inoniy bobolarimiz faoliyati atroflicha yoritilgan. Bularning barchasi — Farg'ona viloyatiga, bu zamin farzandlariga yuksak hurmat va ehtirom ifodasi, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

Yana bir muhim jihati — ana shunday majmualar tufayli joriy yilning birinchi choragida O'zbekistonga 3 millionga yaqin xorijiy sayyoh tashrif buyurdi va turizm eksporti 1,1 milliard dollardan oshdi. Bu, albatta, dastlabki natija, kelajakda uning salmog'i yanada katta bo'ladi deb ishonaman.

Qadri farg'onalik yurtdoshlarim!

Ma'lumki, bu so'lim diyordan yetishib chiqqan, ma'naviy hayotimizda o'chmas iz qoldirgan Uvaysiy, Nodira, Anbar otin, Dilshod Barno, Gulxaniy, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Charxiy, Sobir Abdulla kabi shoir va adiblar nomlari xalqimiz o'rtasida ma'lum va mashhur.

Shuningdek, Aziz Qayumov, Erkin Vohidov, Xudoyberdi To'xtaboyev, Oxunjon Hakimov, Umarali Normatov, Enaxon Siddiqova, Anvar Obidjon singari olimlar, shoir va adiblar yaratgan asarlar ham xalqimizning ma'naviy mulkiga aylangan.

O'zbek san'ati va madaniyati ravnaqiga

beqiyos hissa qo'shgan Yusufjon qiziq Shakarjonov, Usta Olim Komilov, Muhiddin Qoriyoqubov, Tamaraxonim, Halima Nosirova, Mukarrama Turg'unboeva, Jo'raxon Sultonov, Ma'murjon Uzoqov, Tavakkal Qodirov, Saodat Qobulova, Berta Davidova, Murodjon Ahmedov, Nabi Rahimov, Hamza Umarov singari ulug' san'atkorlar bilan butun xalqimiz faxrlanadi.

Bugungi davramizda Abduhoshim Isoilov, Abdulhad Abdurashidov, Qilichbek Tojiyev kabi ustoz san'atkorlar bilan birga o'nlab iste'dodli yoshlarni ko'rib turganimdan xursandman. Bu — Farg'ona zaminida avlodlar o'rtasidagi an'analarda davom etayotgan dalolatdir. Bugun ularning san'atidan bahramand bo'lish ham biz uchun katta bayramdir.

Chindan ham, bizning qanday buyuk san'atimiz, o'zining mahorat maktabiga ega bo'lgan san'atkorlarimiz bor!

Shu o'rinda sizlarga bir yangilikni yetkazmoqchiman.

Biz san'at ahlining mehnati va iste'dodini qadrlash, ijodiy asarlarini kelajak avlodlarga yetkazish bo'yicha katta ishlarni reja qilyapmiz. Elimiz suyg'an mashhur hofizimiz Sherali Jo'rayev, o'zbek estrada san'ati yulduzi Farrux Zokirovning alohida maktablarini tashkil etdik. Ushbu an'anani davom ettirib, farg'onalik ustoz san'atkorlarning ham mahorat maktablarini ochamiz.

Bundan tashqari, ma'naviyat va ma'rifat, madaniyat va san'at vakillari bilan katta muloqot o'tkazamiz. Ushbu muloqotda soha xodimlarini qo'llab-quvvatlash, ularga qo'shimcha sharoitlar yaratish bo'yicha yangi tashabbuslarni ilgari suramiz.

Aziz do'stlar!

Xalqimizda "To'yga to'yona bilan" degan yaxshi gap bor. Farg'onaga bu safar ham yangi-yangi tashabbuslar, katta-katta loyihalar bilan keldim. Maqsad — viloyat rivojini yangi bosqichga olib chiqish, uni barcha sohalarda namunali hududga aylantirishdan iborat. Bugun ochilayotgan "Burhoniddin Marg'inoniy" ilmiy-ma'rifiy va turizm majmuasi shu yo'lda, hech shubhasiz, yangi davrni boshlab beradi.

Milliy me'morchilik an'analari asosida bunyod etilgan, 35 gektar maydonni egallagan betakror majmua Islom huquqshunosligi instituti, maqom teatri, ochiq amfiteatr, o'lkashunoslik muzeyi, adib va san'atkorlar xiyoboni, hunarmandlar markazi, mehmonxona va servis shoxobchalari singari ko'plab bino va inshootlarni o'z ichiga oladi. Bularning barchasi, avvalo, Marg'inoniy bobomizning boy ilmiy merosini hunarmandchilik an'analari asrab-avaylash, ziyorat turizmini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ishonchim komil, Yangi O'zbekiston mo'jizalari qatoridan munosib o'rln egallaydigan bu muhtasham obida Farg'ona viloyatining "tashrif qo'g'ozlari"dan biriga aylanadi.

Bugun biz orzu qilayotgan yangi Buxoriy, Termiziy, Farg'oniy, Xorazmiy va Marg'inoniy avlodi qayerdan yetishib chiqadi? Albatta, ular mana shunday ma'rifat, ilm va ziyo maskanlarida tarbiya topadi.

Shu ma'noda, sizlar bilan birga kelajakka xizmat qiladigan juda katta ezuq ishni amalga oshirdik, desak, har tomonlama to'g'ri bo'ladi. Biz ushbu majmuani aynan Marg'ilon shahrida barpo etganimiz zamirida juda chuqur tarixiy va hayotiy haqiqat mujassam. Bu tabarruk shahar ko'plab ilm va ma'rifat egalari yo'lagi yetkazgan. Tarixiy manbalarda aytilishicha, mazkur qutlug' maskan "Ma'rifat ahlining vatani" degan yuksak sharafga sazovor bo'lgan.

Biz ana shunday qudratli ma'naviy merosimizga tayanib, Marg'ilon, butun Farg'ona tarixining shon-sharaf kitobiga yangi sahifalar bitmoqdamiz. Bu bilan har qancha faxrlansak, g'ururlansak arziydi.

Fursatdan foydalanib, majmuani barpo etishda ishtirok etgan olim va loyihachilarga, muhandis va qurovchilarga, ishchi va xizmatchilarga, ushbu oliyanob ishga hissa qo'shgan barcha saxovatli insonlarga samimiy minnatdorlik izhor etaman.

Ezuq ishlaringizda buyuk ajdodlaringiz ruhlarini hamisha qo'llab-quvvatlasin!

Yangi O'zbekiston, Yangi Farg'ona ravnaqi va shuhrati yanada ziyoda bo'lsin!

"LAZGI" III XALQARO RAQS FESTIVALI ISHTIROKCHILARIGA

Hurmatli festival qatnashchilari!

Muhtaram mehmonlar!

Xonimlar va janoblar, san'at muxlislari!

Siz, azizlarni Jayhun sohilida, Sharq gavhari bo'lmish ko'hna Xiva shahrida o'tkazilayotgan musiqa va san'at bayrami — "Lazgi" III xalqaro raqs festivalining ochilishi bilan chin qalbidan samimiy muborakbod etaman.

Fursatdan foydalanib, YUNESKO, TURKSOY kabi nufuzli xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar vakillariga, xorijiy davlatlarning muhtaram elchilariga, taniqli san'at darbdorlari, olim va mutaxassislariga, barcha ishtirokchilarga o'zining chuqur hurmatini izhor etaman.

Ushbu anjuman mezbonlik qilayotgan qadimiy va betakror Xorazm ahlini alohida qutlab, ezuq tilaklarini bildiraman.

Mana shunday shukhli bahor kunlarida, boqiy va bezavol "Lazgi" sadolari ostida o'tayotgan bu go'zal bayram barchamizga muborak bo'lsin! Qadri anjuman ishtirokchilari!

Uch ming yildan ziyod shonli tarix va madaniyatga ega bo'lgan xalqimiz qalbin, uning nafis tuyg'ularini hayratlanarli darajada nozik harakatlar orqali ifoda etadigan noyob san'at durdonasi — "Lazgi" nomi bilan ataladigan xalqaro raqs festivali turli elu elatlar o'rtasida samarali madaniy muloqot maydoniga aylanib borayotgani barchamizni albatta xursand qiladi.

"Lazgi" ezuqlik va go'zallik, tinchlik va do'stlik g'oyalari asrlar davomida tarannum etib kelayotgan, Xivaning muazzam minoralari kabi yuksaklik va ulug'vorlik timsoli bo'lgan mumtoz musiqiy obidadir.

Aynan ana shunday benazir xususiyatlariga ko'ra, mazkur nodir asar 2019-yilda YUNESKOning Insoniyat nomoddiy madaniy merosi ro'yxatidan munosib joy egalladi va xalqaro miqyosda tobora yuksak qadr-qimmat kasb etib bormoqda.

Keyingi yillarda O'zbekiston Milliy baleti guruhi tomonidan "Lazgi. Muhabbat va qalb raqsi" baleti jahondagi nufuzli sahnalarda muvaffaqiyatli namoyish etib kelinayotgani ham bu fikrni tasdiqlaydi.

Hozirgi vaqtda Yangi O'zbekistonda madaniyat va san'at rivojiga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Xususan, milliy raqs san'atini yuksaltirish, sohada yuqori malakali kadrlar tayyorlash borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, xoreografiya sohasida zamonaviy ta'lim tizimi yo'lga qo'yilgani, mashhur "Bahor" ansambli faoliyati qayta tiklangani, "Lazgi" ansambli va boshqa ijodiy jamoalar qo'llab-quvvatlanayotganini ta'kidlash lozim.

"Lazgi" xalqaro raqs festivali mamlakatimizning madaniy diplomatiyasida muhim o'rln tutadigan strategik platformadir. Ushbu anjuman xalqaro madaniy brend sifatida shakllanib, uning geografiyasi va ishtirokchilarining soni yil sayin ortib borayotgani, bugungi festivalda dunyoning o'nlab mamlakatlaridan yuzlab san'atkorlar, raqs jamoalari, olim va ekspertlar ishtirok etayotgani diqqatga sazovordir.

Biz yoshlar o'rtasida mumtoz san'atimizga qiziqishni yanada oshirish, ularni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarishda "Lazgi" raqsidan mahorat va tajriba maktabi sifatida foydalanishni davom ettiramiz.

Ana shunday ezuq maqsadlarga xizmat qilayotgan xalqaro festivalning nufuzi kelgusida yanada yuksalib, u jahon madaniy hayotida munosib o'rln egallaydi deb ishonaman.

Sizlarni bugungi san'at va madaniyat bayrami bilan yana bir bor qutlar ekanman, barchangizga mustahkam sog'liq, oilaviy baxt-saodat, san'at olamida yangi yutuq va zafarlar, anjuman ishiga esa muvaffaqiyatlar tilayman.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

XALQIMIZ MA'NAVYIY HAYOTIDAGI UNUTILMAS VOQEA

Marg'ilon shahrida barpo etilgan "Burhoniddin Marg'inoniy" ilmiy-ma'rifiy va turizm majmuasining tantanali ochilish marosimi yurtimiz ma'naviy hayotidagi unutilmas voqealardan biri sifatida tarixga muhrlandi.

Ushbu qutlug' tadbirida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ishtirok etib, xalqimizga samimiy tabrik va ezuq tilaklarini yo'lladi.

Darhaqiqat, mehnatkash, oqko'ngil va oliyanob Farg'ona ahliga bo'lgan yuksak hurmat va ehtirom ifodasi sifatida bu zaminda bugun katta-katta ishlar amalga oshirilyapti.

Davlatimiz rahbari o'z nutqida mazkur majmua nafaqat Marg'ilon shahri, balki butun Farg'ona vodiysi uchun ma'naviy-ma'rifiy markazga aylanishini alohida ta'kidladi.

Haqiqatan ham, keyingi yillarda milliy me'morchilik an'analari va zamonaviy yondashuvlarni uyg'unlashtirgan holda barpo etilayotgan bunday majmualar

xalqimizning boy tarixi va madaniyatini yanada keng targ'ib etishga xizmat qilmoqda.

(Davomi 3-betda).

XALQIMIZ MA'NAVYI HAYOTIDAGI UNUTILMAS VOQEA

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).



Tantanali marosim yuqori saviyada tashkil etilgan konsert dasturi bilan davom etgani barchani xushnud etdi. Folklor-etnografik jamoalar, san'atkorlar va iste'dodli ijrochilar tomonidan taqdim etilgan chiqishlar tadbirga shukuh bag'ishladi. Ayniqsa, yurtimizning turli hududlariga xos

surxoncha, buxorocho va qoraqalpog'cha kabi raqslar madaniy xilmaxillikni yaqqol namoyon etdi.



Konsertga tashrif buyurgan yurtdoshlarimiz qalbida shodlik, faxr va birlik tuyg'ulari yanada mustahkamlandi.

Tadbir davomida ishtirokchilarning yuzlaridagi quvonch va ko'ngillaridagi ko'tarinki kayfiyat mazkur madaniy dasturning yuksak saviyada tashkil etilganini ko'rsatdi. Marg'ilon ahli, turli viloyatlardan kelgan mehmonlar va sayyohlar bilan birgalikda milliy an'alarimiz ruhida raqsga tushdilar.

Kecha yakunida osmonni yoritgan salyutlar ushbu tarixiy onning yanada yorqin ramziga aylandi. Marg'ilon shahri va oqshom nafaqat yangi majmua ochildishi, balki xalqimizning yuksak madaniyati, birdamligi va hayotsevarligini namoyon etgan unutilmas bayramga guvoh bo'ldi.

Abdulaziz RUSTAMOV,
Behruz XUDOYBERDIYEV,
O'ZA muxbirlari.

Senat qo'mitasida

SAYYOHLIK SALOHIYATI VA IMKONIYATLARI

Oliy Majlis Senatining Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo'mitasi majlisida Andijon viloyati hokimligining Barqaror rivojlanish maqsadlari doirasida viloyatda turizmni rivojlantirish borasida amalga oshirilgan ishlar holati to'g'risidagi axboroti tinglandi.

Unda senatorlar, mahalliy Kengashlarning doimiy komissiyalari raislari, vazirlik va idoralar vakillari, jumladan, Turizm qo'mitasi hamda Andijon viloyati hokimligi rahbarlari, soha ekspertlari va ommaviy axborot vositalari xodimlari qatnashdi.

Majlisda Andijon viloyatida turizm sohasida mavjud infratuzilmani rivojlantirish, sohaga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, xizmat ko'rsatish sifatini oshirish va sayyohlar oqimini ko'paytirish masalalari muhokama etildi.

Shuningdek, turizmni jadal rivojlantirish bo'yicha tizimli yondashuvlarni amalga oshirish, madaniy meros obyektlari va manzil maskanlarda sayyohlar uchun qulay hamda zamonaviy shart-sharoitlarni

yaratish yuzasidan o'zaro fikr almashildi.

Senatorlar tomonidan turizm sohasida xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlikni faollashtirish, xalqaro ko'rgazmalar va festivallarda viloyatning turistik salohiyatini keng targ'ib qilish masalalariga alohida e'tibor qaratish zarurligi qayd etildi.

Shu bilan birga, viloyatda yagona hududiy brendni shakllantirish, kompleks turpaketlarni joriy qilish, investitsiya loyihalarini samarali amalga oshirish hamda zamonaviy turistik xizmatlar turlarini kengaytirish bo'yicha tegishli taklif va tavsiyalar bildirildi.

Majlis yakunida qo'mitaning tegishli qarori qabul qilindi.

Onlayn muloqot

Izchil mustahkamlanayotgan do'stona munosabatlar

Oliy Majlis Senatida "O'zbekiston – Avstriya" va "Avstriya – O'zbekiston" hamkorlik bo'yicha parlamentlararo guruhlarining uchrashuvi bo'lib o'tdi.

Onlayn muloqot davomida ikki mamlakat o'rtasidagi do'stona munosabatlar izchil rivojlanib borayotgani, ushbu hamkorlik o'zaro hurmat va ishonch tamoyillari asosida taraqqiy etayotgani alohida ta'kidlandi.

Uchrashuvda parlamentlararo hamkorlikni yanada mustahkamlash masalalari yuzasidan atroflicha fikr almashildi. Xususan, parlamentlararo guruhlar faoliyati samaradorligini oshirish, parlament nazorati mexanizmlarini takomillashtirish hamda bu borada o'zaro tajriba almashish muhim ahamiyatga ega ekani qayd etildi.

Shuningdek, qonun ijodkorligi bo'yicha hamkorlikni kengaytirish, ilg'or tajribalar bilan o'rtoqlashish va parlamentlararo muloqotni yangi mazmun bilan boyitish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Ikki mamlakat o'rtasida savdo, iqtisodiyot, qishloq xo'jaligi, ekologiya, "yashil" energetika sohalarida, energiya samaradorligi va ekologik standartlarni rivojlantirish hamda ta'lim va gumanitar yo'nalishlarda hamkorlikni kengaytirish muhim ekani ta'kidlandi.

"Xalq so'zi".

BOQIY VA BEZAVOL SAN'AT BAYRAMI

Ayni kunlarda jahon madaniyati va san'ati ahlining e'tibori qadimiy va betakror Xiva shahriga qaratilgan. Bu yerda milliy raqs san'atimizning yuksak namunasi bo'lgan "Lazgi"ni targ'ib etish, uning betakror jozibasini dunyoga keng yoyishga qaratilgan "Lazgi" III xalqaro raqs festivali bo'lib o'tmoqda.

Festival

Nufuzli anjumanning tantanali ochilish marosimida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Lazgi" III xalqaro raqs festivali ishtirokchilariga tabrigini Prezident Administratsiyasi rahbari Saida Mirziyoyeva o'qib eshittirdi.

Tabrikda ta'kidlanganidek, uch ming yildan ziyod shonli tarix va madaniyatga ega bo'lgan xalqimiz qalbini, uning nafis tuyg'ularini hayratlanarli darajada nozik harakatlar orqali ifoda etadigan noyob san'at durdonasi – "Lazgi" nomi bilan ataladigan xalqaro raqs festivali turli elu elatlar o'rtasida samarali madaniy muloqot maydoniga aylanib borayotgani barchamizni albatta xursand qiladi.

"Lazgi" ezgulik va go'zallik, tinchlik va do'stlik g'oyalari asrlar davomida tarannum etib kelayotgan, Xivaning muazzam minoralari kabi yuksaklik va ulug'vorlik timsoli bo'lgan mumtoz musiqiy obididir.

Aynan ana shunday benazir xususiyatlariga ko'ra, mazkur nodir asar 2019-yilda YUNESKONING Insoniyat nomodiy madaniy merosi ro'yxatidan munosib joy egalladi va xalqaro miqyosda tobora yuksak qadr-qimmat kasb etib bormoqda.

Ma'lumki, "Lazgi" xalqaro raqs festivali 2022-yildan buyon har ikki yilda bir marotaba o'tkazib kelinmoqda. Qisqa vaqt ichida u xalqaro miqyosdagi yirik san'at bayramiga aylandi. Jahon madaniy hamjamiyati e'tiborini qozongan festival bu yil yanada keng qamrov kasb etdi. Anjuman YUNESKO shafeligida o'tkazilishi bilan birga, joriy yildan e'tiboran TURKSOY xalqaro tashkiloti ham uni qo'llab-quvvatlamog'ida. Bu esa festivalning nufuzi va geografiyasi yanada kengayib borayotganidan dalolat beradi.

2026-yilda uchinchi marotaba tashkil etilayotgan mazkur festivalda dunyoning 30 dan

ortiq davlatlaridan 300 nafardan ziyod iste'dodli raqqosalar, professional raqs jamoalari, musiqashunos va san'atshunos olimlar, taniqli san'atkorlar, sohaning yetuk mutaxassislari hamda faxriy mehmonlar ishtirok etmoqda. Bu esa festivalning nafaqat ijodiy, balki ilmiy-ma'rifiy ahamiyatini ham yanada oshirmoqda.

Tadbir doirasida "Jahon madaniy taraqqiyotida raqs san'ati: an'ana va umumbashariy qadriyatlar" mavzuida III xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o'tkazilishi rejalashtirilgan. Unda raqs san'atining tarixi, uning milliy va umuminsoy qiymatlari, zamonaviy taraqqiyot yo'nalishlari atroflicha muhokama etiladi.

Shuningdek, O'zbekiston va Turkiya madaniy qo'shma komissiyasining III yig'ilishi, TURKSOYga a'zo davlatlarning san'at va raqs oliy ta'lim muassasalari rektorlarining uchrashuvi, "Turk dunyosining an'anaviy raqsi antropologiyasi" mavzudagi konferensiya hamda "Etnomadaniy forum"lar o'tkazilishi ko'zda tutilgan. Bu tadbirlar turkiy xalqlar madaniy merosini asrash va rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Festival tadbirlarining eng tantanali va yorqin lahzarli esa "Ichan qal'a" davlat muzey-qo'riqxonasi hududida bo'lib o'tmoqda. To'rt kunlik raqs tanlovlarida mahalliy va xorijiy ishtirokchilar o'zaro ijodiy bellashib, o'z mahorati va sahnaviy madaniyatini namoyon etadi. Tanlov yakuniga ko'ra, eng munosib qatnashchilar Tashkiliy qo'mita tomonidan diplom, statuetka va pul mukofotlari bilan taqdirlanadi.

Shubhasiz, "Lazgi" xalqaro raqs festivali nafaqat milliy san'atimizning jahon sahnasidagi nufuzini oshirishga, balki xalqlar o'rtasida do'stlik va madaniy hamkorlik rishtalarini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

"Xalq so'zi".

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

FAOLIYAT SARHISOBI MUHOKAMASI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisida deputatlar O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining 2025-yildagi faoliyati to'g'risidagi hisobotini atroflicha muhokama qildi.



Deputatlar mazkur hisobot O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda "Hisob palatasi to'g'risida"gi Qonunga muvofiq tayyorlangani, unda Hisob palatasining 2025-yildagi faoliyati natijalari, Davlat byudjeti mablag'larining sarflanishi va sarflanishida qonuniylik, maqsadlilik va samaradorlikni ta'minlash bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar aks ettirilganini urg'uladi.

Prezidentimizning davlat moliyaviy nazorat tizimini takomillashtirishga qaratilgan muhim farmonlari asosida O'zbekistonda davlat tashqi auditori va moliyaviy nazorat tizimi tubdan transformatsiya qilindi. Hisob palatasi o'zaro "moliyaviy taftishchi" ro'lini yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini baholovchi strategik tuzilmaga aylandi.

Hisobotda ta'kidlanishicha, Hisob palatasi o'z faoliyatida ustuvorlik nafaqat byudjet mablag'larining sarflanishiga, balki ularning ijtimoiy-iqtisodiy natijadorligiga qaratilmoqda. Sohada amalga oshirilgan islohotlar Hisob palatasi faoliyatida raqamli hamda sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish ishlarini yanada jadallashtirdi. Xususan, "Masofaviy audit" axborot tizimi qisqa vaqt ichida davlat moliyaviy nazorat qilishni kuchaytirish yuzasidan takliflar bildirildi.

Ta'kidlanganidek, Hisob palatasining 2025-yilgi faoliyati davomida o'tkazilgan nazorat tadbirlarining salmog'i 2024-yildagiga nisbatan qariyb 20 foizga oshgan. Audit tadbirlari davomida qator moliyaviy xato va kamchiliklar aniqlangan. Ko'rilgan choralar natijasida 2 trn. so'mdan ortiq mablag' byudjetga qaytarilgan. Xavf-xatari oldindan (preventiv) nazorat qilish orqali 8,1 trn. so'mlik asossiz xarajatlarning oldi olingan.

Xalq vakillari Hisob palatasi faoliyatida an'anaviy nazoratdan tizimli tahlil va preventiv mexanizmlarga o'tish jarayonlari sezilarli darajada jadallashtirildi. Xususan, "Masofaviy audit" tizimi 75 ta idoraning 259 ta ma'lumotlar bazasi bilan integratsiya qilingan. Davlat xaridlari sohasida sun'iy intellekt modullari yordamida 83,3 mlrd. so'mlik manfaatlar to'qnashuvi va affillanganlikka oid qonunbuzilish holatlari bartaraf etilgan.

Deputatlar palata faoliyatida erishilgan yutuqlar bilan bir qatorda, ayrim tizimli muammolarga ham to'xtalib o'tdi. Xususan, davlat va hududiy rivojlantirish dasturlari ijrosi bo'yicha mas'ul vazirlik hamda idoralarga ushbu dasturlar doirasida amalga oshirilayotgan loyihalarni jadallashtirish hamda mablag'lar samaradorligini nazorat qilishni kuchaytirish yuzasidan takliflar bildirildi.

Mahalliy Kengashlarning

byudjet sohasidagi salohiyatini oshirish, byudjetga qo'shimcha daromad manbalari topish hamda byudjet mablag'larining sarflanishida "Masofaviy audit" tizimini joriy etishda Hisob palatasi ishtirokini kuchaytirish bo'yicha aniq takliflar ilgari surildi.

Davlat aktivlarini xususlashtirish dasturi doirasidagi ishlarni yanada jonlantirish talab etilayotgani ham xalq vakillari e'tiborida bo'ldi. 2025-yilda rejalashtirilgan aktivlarning bir qismi hamon sotuv jarayonida qolayotgani tanqidiy baholandi. Ushbu yo'nalishdagi islohotlar sur'atini oshirish va sotuv jarayonlarining to'liq shaffoflikni ta'minlash orqali iqtisodiy faollikni kuchaytirish lozimligi ta'kidlandi.

Muhokamada xalq vakillari Hisob palatasi faoliyatida yangi nazorat mexanizmlarini, jumladan, masofaviy audit tadbirlarini o'tkazishning huquqiy asoslarini amaldagi qonunchilikka implementatsiya qilish bo'yicha aniq takliflar ishlab chiqishni tavsiya etdi. Shuningdek, sun'iy intellekt imkoniyatlaridan nafaqat davlat xaridlarida, balki "yashirin iqtisodiyot" ulushi yuqori bo'lgan sohalarda ham keng foydalanish lozimligi ko'rsatib o'tildi.

Deputatlar parlament nazoratining samaradorligini oshirish borasida Hisob palatasi bilan o'rnatilgan hamkorlikni yanada kuchaytirish, muhim sohaniy auditorlar va aniqlangan tizimli kamchiliklar bo'yicha palatalarning qo'mitalariga muntazam ravishda tematik tahliliy materiallar taqdim qilib borishni taklif etdi.

Majlis yakunida O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining 2025-yildagi faoliyati to'g'risidagi hisoboti yuzasidan tegishli qaror qabul qilindi.

"Xalq so'zi".

Markaziy Osiyo mamlakatlari kasaba uyushmalari Kengashi:

HAMKORLIKNING 5 YILLIK YO'LI

Poytaxtimizda Markaziy Osiyo mamlakatlari kasaba uyushmalari Kengashining umumiy yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda Markaziy Osiyo mamlakatlari kasaba uyushmalari Kengashi a'zolari – O'zbekiston, Qozog'iston, Tojikiston, Qirg'iziston, Mo'g'uliston milliy kasaba uyushmalari vakillari, shuningdek, Turkmaniston kasaba uyushmalari milliy markazi delegatsiyasi a'zolari, Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) mehnatkashlar faoliyati bo'yicha Byurosi Yevropa va Markaziy Osiyo sektori rahbari, mamlakatimiz kasaba uyushmalari Federatsiyasining hududiy kengashlari hamda tarmoq kasaba uyushmalari Respublika kengashlari raislari, Federatsiya apparati mas'ul xodimlari qatnashdi.

Forum

O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi raisi Qudratilla Rafiqov anjumanda ta'kidlaganidek, oxirgi 9 yilda Markaziy Osiyoda ulkan ijobiy o'zgarishlar ro'y bermoqda. Mintaqa mamlakatlari o'rtasida do'stlik, o'zaro manfaatlar va ishonch tamoyillariga asoslangan qo'shniqlik munosabatlari jadal rivojlanib boryapti. Bularning barchasi tarixan qisqa vaqt ichida Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlari rahbarlarining siyosiy irodasi natijasida mintaqa mamlakatlari o'rtasidagi munosabatlarda ulkan ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilgani hamda do'stona aloqalarning yangi bosqichga olib chiqilgani natijasidir.

Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining o'zaro hamkorlikni rivojlantirish borasidagi sa'y-harakatlari mamlakatlarimiz kasaba uyushmalarining do'stona aloqalarini yanada mustahkamlash hamda asosiy vazifalarini amalga oshirishda tajriba almashish ishlarini tamomila yangi bosqichga olib chiqdi. Shu ma'noda, O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi tashabbusi bilan tuzilgan Markaziy Osiyo mamlakatlari kasaba uyushmalari Kengashi ham turli soha mehnatkashlarining ijtimoiy-mehnat, kasbiy, iqtisodiy va boshqa qonuniy huquq hamda manfaatlarini, kasaba uyushmalari faoliyatining huquq va kafolatlarini himoyalashga, kasaba uyushmalarining xalqaro birdamligini

kasaba uyushmalari konfederatsiyasi (XKUK) tomonidan ham yuqori baholandi. Asosiysi, Kengash qisqa muddat ichida shunchaki rasmiy tuzilma emas, balki chinakam jonli va samarali mexanizmga aylandi.

Kengash umumiy yig'ilishida 2026-yilda Markaziy Osiyo mamlakatlari kasaba uyushmalari Kengashiga raislik qilish vakolati bir ovozdin O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasiga berildi.

Kun tartibiga muvofiq, majlis davomida Markaziy Osiyo mamlakatlarida milliy uch tomonlama ijtimoiy muloqot amaliyoti, qulay psixosotsial ish sharoitlarini yaratishda kasaba uyushmalarining roli, mintaqa mamlakatlari kasaba uyushmalarining platforma iqtisodiyotidagi pozitsiyasini shakllantirish, Markaziy Osiyo mamlakatlari kasaba uyushmalari Kengashini Markaziy Osiyo mamlakatlari kasaba uyushmalari konfederatsiyasiga aylantirish hamda Ustavini tasdiqlash, konfederatsiya bosh kotibini saylash to'g'risidagi masalalar ko'rib chiqildi.

Umumiy yig'ilishda Markaziy Osiyo mamlakatlari kasaba uyushmalari konfederatsiyasi Bosh kengashi va uning tarkibi saylandi, konfederatsiya Ijroiya qo'mitasi tarkibi tasdiqlandi. Shuningdek, Markaziy Osiyo mamlakatlari kasaba uyushmalari konfederatsiyasining ishchi apparatini tuzish, uning shtatlarini tasdiqlash va moliyalashtirish manbaini belgilash to'g'risidagi masala ham ko'rib chiqilib, tegishli qarorlar qabul qilindi.

Anjuman ishtirokchilari O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazida bo'lib, uning faoliyati bilan tanishdi. Nafaqat o'l'mish haqida hikoya qiladigan, balki tarix, bugun va kelajakni bog'laydigan, taraqqiyotimizning asosiy yo'nalishlarini belgilab beradigan aql-tafakkur markazi mehmonlarda katta taassurot qoldirdi.

"Xalq so'zi".

2030-yilga qadar Yoshlar ishlari agentligining 20 ming nafar yigit-qizni tadbirkorlikka o'qitishga mo'ljallangan "Yangi avlod tadbirkorlari" dasturi ishga tushiriladi.

Elektron nazorat tizimini joriy etish istiqbollari

Kecha Oliy Majlis Senatining Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi hamda xalq deputatlari Mirobod tumani Kengashining qo'shma majlisi bo'lib o'tdi. Unda tumanda huquqbuzarliklar profilaktikasi, jinoyatchilik va korrupsiyaga qarshi kurashish borasida amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligi atroflicha muhokama qilindi.

Qo'shma yig'ilish



Majlisda davlat rahbarining "Respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish yo'nalishida yaxlit manzilli ishlash tizimini joriy etishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi hamda "2026-yilda respublika mahallalarida jinoyatchilikning barvaqt profilaktikasi samaradorligini yanada oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari ijrosiga alohida e'tibor qaratildi. Ushbu qarorlarga muvofiq har bir mahallada kriminogen vaziyatga ta'sir etuvchi omillarni barvaqt aniqlash, oldini olish mumkin bo'lgan jinoyatlar yuzasidan mahalliy hokimliklar mas'uliyatini oshirish, ijtimoiy profilaktika samaradorligini kuchaytirish, ayollar va yoshlar o'rtasida jinoyatchilikning oldini olish hamda bu jarayonlar ustidan elektron nazorat tizimini joriy qilish ustuvor vazifa etib belgilangan.

Mahallabay ishlash tizimi asosida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida joriy yilning birinchi choragida ayollar, yoshlar, ishsizlar

tomonidan sodir qilingan jinoyatlar, shuningdek, mastlik holatida va guruh bo'lib jinoyatga qo'l urish holatlari kamaygani qayd etildi.

Shu bilan birga, qo'shma majlisda "yashirin iqtisodiyot"ni qisqartirish, bozorlarni raqamlashtirish va qurilish sohasidagi korrupsiyaviy omillarni bartaraf qilish masalalari ham ko'rib chiqildi. Ushbu yo'nalishlar bo'yicha tuman hokimi, prokurori hamda ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi rahbarlarining axborotlari eshitildi.

Majlisda Senatning Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi raisi Q. Burhonov ijobiy natijalar bilan bir qatorda mavjud kamchiliklarga ham to'xtalib, kriminogen omillarni barvaqt aniqlash va ijtimoiy profilaktika ustidan elektron nazoratni kengaytirish bo'yicha mas'ullarga aniq ko'rsatma va tavsiyalar berdi.

Muhokama yakunida tegishli qaror qabul qilinib, belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash yuzasidan aniq chora-tadbirlar rejasini tasdiqlandi.

Siyosiy partiyalarning Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyalarining yig'ilishlari bo'lib o'tdi. Ularda mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotidagi muhim voqe'larga e'tibor qaratildi, shuningdek, quyidagi palataning navbatdagi majlisi kun tartibiga kiritilishi rejalashtirilayotgan qator qonun loyihalari ko'rib chiqildi.

Tadbirkorlarga faoliyatini qisqa vaqtda qayta davom ettirish imkoni beriladi

Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida Prezidentimiz raisligida joriy yilning birinchi choragida hudud va tarmoqlardagi iqtisodiy o'sish tahlili va yil yakuniga qadar ustuvor vazifalar yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida ko'rib chiqilgan masalalar haqida so'z yuritildi. Unda ilgari surilgan takliflar iqtisodiyotni yangi bosqichga olib chiqish, barqaror o'sishni ta'minlash va aholi farovonligini oshirishga xizmat qilishi ta'kidlandi.

Deputatlar tomonidan ko'rib chiqilgan navbatdagi masala – tadbirkorlarning huquq va manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan qonun loyihasi bo'ldi.

Loyiha bilan iqtisodiy protsessual hamda Soliq kodekslariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda. Jumladan, soliq to'lovchi bo'lgan tadbirkorlik subyekti o'zining soliqqa oid huquqbuzarligini tan olganda va e'tiroz bildirmaganda, tadbirkorning bankdagi hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib turish soliq organlari tomonidan amalga oshirilishi belgilanyapti.

Huquqbuzarlik bartaraf etilganda hisobvaraqlar faoliyatiga qo'yilgan cheklovni bekor qilish ham soliq organi tomonidan amalga oshirilishi taklif etilmoqda. Endilikda qoidabuzulish tan olinsa, ish sudgacha bormaydi. Kiritilayotgan mazkur o'zgartirishlar qoidabuzulishlarni tez fursatda bartaraf qilish va tadbirkor faoliyatini qisqa vaqtda qayta davom ettirish imkonini beradi.

Qonun loyihasi bilan soliq to'lovchi soliq organining qarori yuzasidan e'tiroz bildirsa, uning bankdagi hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib turish soliq organining arizasiga asosan iqtisodiy sud tomonidan amalga oshirilishi nazarda tutilmoqda.

Mamlakatimizda tadbirkorlik subyektlarining huquqlarini, erkinliklarini va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish borasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda, – deydi fraksiya a'zosi Odiljon Mamadaliyev. – Ushbu hujjat esa banklardagi hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalari to'xtatib turilgan tadbirkorlik subyektlarining o'z

Fraksiyalar hayoti

QIZG'IN MUNOZARALAR VA KONSTRUKTIV TAKLIFLAR

bilan bog'liqliq inobatga olinib, ana shunday xizmatlarni taklif etuvchilarga o'z tizimidagi himoya va xavfsizlik choralarini muntazam kuchaytirib borish majburiyati qo'yilmoqda.

Loyihaga ko'ra, tijorat banklari, to'lov tizimi operatorlari va tashkilotlar axborot va kiberxavfsizlikni ta'minlash hamda shubhali operatsiyalarning oldini olish bo'yicha belgilangan talablarni yetarli darajada bajarmasa, yuzaga keladigan zarar ularning hisobidan qoplanadi. Shuningdek, jinoyatlardan jabrlanganlarni reabilitatsiya qilish tizimi va amaliyoti shakllantirilmoqda. Shu bilan birga, "moliyaviy piramidaga" qarshi kurash choralarini yanada kuchaytirildi. Axborot resurs egalari aniqlangan noqonuniy kontentlar bo'yicha vakolatli davlat organiga ma'lumot taqdim etib borish majburiyati yuklanayapti.

Fraksiya a'zosi Jahongir Shirinov loyihaga munosabat bildirib, so'nggi yillarda eng ko'p sodir etilayotgan va eng ko'p ochilmayotgan jinoyatlar aynan kibermakonda yuz berayotganini ta'kidladi. – Odatda, fuqaroning bank kartasidan pul o'g'irlansa, uning o'zini aybdor qilishga o'rganib olganmiz. Endilikda ushbu loyiha bilan qonunchilikdagi ana shunday bo'shliq to'ldirilmoqda va jamiyatimiz bunday o'zgarishlarni anchadan buyon kutayotgan edi, – dedi deputat.

Fraksiya a'zolari loyihada ikkinchi o'qish jarayonida muhokama qilinadigan masalalar, taklif va tashabbuslar ko'pligini e'tirof etgan holda qonun loyihasini qo'llab-quvvatladi.

Raqamli muhitdagi huquqbuzarliklarga qarshi kurashish tizimi kuchaytirilmoqda

"Adolat" sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida davlatimiz rahbarining yaqinda yoshlarga yangi imkoniyatlar yaratishga oid qabul qilingan muhim farmon va qarorining mazmun-mohiyati haqida so'z yuritildi.

Hujjatlarda yoshlar islohotlarning faol ishtirokchisi va taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchi sifatida e'tirof etilayotgani, bu yondashuv ijtimoiy adolat, teng imkoniyatlar yaratish va inson kapitaliga sarmoya kiritish kabi ustuvor qadriyatlarimiz amaliy ifodasi ekanligi urg'ulandi.

Shundan so'ng fraksiya a'zolari kiberxavfsizlikni ta'minlash va raqamli muhitda sodir etilayotgan huquqbuzarliklarga qarshi kurashish tizimini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasini muhokama qildi. Ushbu hujjat bilan bank kartalari, elektron va kriptohamonlar hamda ularni boshqarish imkonini beruvchi ma'lumotlarni qonunga xilof ravishda boshqa shaxslarga berganlik uchun ma'muriy va jinoyi javobgarlik belgilanmoqda. Shuningdek, SIM-kartalar, shaxsiy akkauntlar va identifikatsiya vositalarini boshqa shaxslarga noqonuniy berish yoki ulardan foydalanish holatlarini uchun ham javobgarlik choralarini kuchaytirilayapti.

Qonun loyihasida muhim axborot infratuzilmasi obyektlarida kiberxavfsizlik talablariga rioya etmaganlik uchun ma'muriy javobgarlik ham belgilanyapti. Qolaversa, bank va to'lov tashkilotlarida axborot xavfsizligi qoidalarga amal qilmagani sababli yuzaga kelgan zararni banklar va to'lov tashkilotlari tomonidan qoplash mexanizmi joriy etilmoqda.

Qonun loyihasi saylovoldi dasturimizda belgilangan maqsad va vazifalardan kelib chiqib, obdan muhokamadan o'tkazildi. Undagi ayrim normalarni yanada takomillashtirish bo'yicha qator takliflar bildirildi, – deydi fraksiya a'zosi Ziyodbek Yunusov. – Mazkur hujjat axborot texnologiyalaridan foydalanib, sodir qilingan jinoyatlarning barvaqt oldini olish va ularni fosh etish mexanizmini takomillashtirishga xizmat qiladi. Munozaralardan so'ng qonun loyihasi deputatlar tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

To'lov vositalari bilan bog'liq huquqbuzarliklar – e'tibor markazida

O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida "Kiberxavfsizlikni ta'minlash va raqamli muhitdagi huquqbuzarliklarga qarshi kurashish tizimi takomillashtirilishi munosabati

bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi qonun loyihasi muhokama qilindi.

Unda Jinoyat, Jinoyat-prosessual hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslarga o'zgartirishlar kiritish, axborot xavfsizligi talablariga rioya etmaganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish, elektron to'lov vositalari bilan bog'liq jinoyatlar uchun jazo choralarini qat'ylashtirish nazarda tutilgan.

Muhokama jarayonida deputat Anvarxon Temirov qator dolzarb savollarni o'rtaga tashladi.



Xususan, internet tarmoqlarida, jumladan, xorijiy platformalar orqali amalga oshirilayotgan reklama va axborot tarqatish jarayonlarini huquqiy jihatdan cheklash imkoniyatlarini masalasi ko'tarildi. Deputat internet global tarmoq ekanini, ayniqsa, xorijiy subyektlar tomonidan amalga oshirilayotgan reklama faoliyatini nazorat qilish amalda murakkabligini ta'kidladi. Shu nuqtayi nazardan, qonun loyihasida fuqarolarni jinoyat sodir etilgandan keyin emas, balki undan oldin himoya qilish mexanizmlari yetarli darajada aks etmaganiga haqida fikr bildirdi.

Mas'ullar tomonidan qonun loyihasi, asosan, javobgarlikni kuchaytirish bilan birga, profilaktik mexanizmlarni ham nazarda tutayotgani ta'kidlandi va bu bo'yicha atroflicha tushuntirish berib o'tildi.

Deputat Jamol Achilov bank kartalaridan foydalanish tartibiga oid normalarni aniqlashtirish zarurligini ta'kidlab, ayrim hollarda bank kartasini oila a'zolariga berish amaliyoti javobgarlikka sabab bo'lmasligi, lekin noqonuniy faoliyatida foydalanilganda mas'uliyat yuzaga kelishi masalasiga aydinlik kiritishni so'radi.

Mas'ullar ushbu holatda javobgarlik faqat karta ma'lumotlari noqonuniy faoliyat uchun berilib, jinoyatga sabab bo'lgan taqdirdagina yuzaga kelishini, bildirilgan takliflar esa qonun loyihasini takomillashtirish jarayonida inobatga olinishini ma'lum qildi.

Yig'ilishda qonun loyihasi normalarni tushuntirishga qaratilgan qo'shimcha seminarlar tashkil etish taklifi ilgari surildi.

Qonun loyihasini qo'llab-quvvatlash yuzasidan tegishli qaror qabul qilindi.

Veterinariya xizmatlari sifati oshiriladi

O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida, davlat veterinariya nazoratini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi ko'rib chiqildi.

Muhokama davomida mamlakatimizda veterinariya xizmatlari sifatini yaxshilash, veterinariya-sanitariya xavfsizligini ta'minlash borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilayotgani qayd etildi.

Qonun loyihasi bilan veterinariya sohasidagi munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solishni yanada takomillashtirish, veterinariya nazorati mexanizmlarini kuchaytirish, mas'ul davlat organlari vakolatlarini aniq belgilash va mas'uliyatni yanada oshirish nazarda tutilmoqda. Shuningdek, hayvonlar kasalliklarining oldini olish, ularni barvaqt aniqlash va bartaraf etish, veterinariya xizmatlari sifatini yaxshilashga qaratilgan qator normalar kiritilmoqda.

Qonun loyihasi veterinariya sohasini yanada rivojlantirishga qaratilgan bilan ahamiyatli, – deydi fraksiya a'zosi Oybek Rahimov. – Shuningdek, kiritilayotgan normalar milliy mahsulotlarning xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Muhokamadan so'ng qonun loyihasi fraksiya a'zolari tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

Kun tartibidagi navbatdagi masala – kiberxavfsizlikni ta'minlash va raqamli muhitda sodir etilayotgan huquqbuzarliklarga qarshi kurashish tizimini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi bo'ldi. U kiberjinoyatlarining oldini olish, axborot xavfsizligini ta'minlash, fuqarolarning mulkiy huquqlarini himoya qilish hamda raqamli muhitda xavfsizlikni kuchaytirishga qaratilgan.

Fraksiya a'zolari belgilanayotgan normalarni atroflicha ko'rib chiqib, qonun loyihasini qo'llab-quvvatladi.

"Xalq so'zi".

Tadbir Yer resurslaridan oqilona foydalanish – muhim omil

Toshkent davlat agrar universitetida "Barqaror rivojlanishda yer resurslaridan samarali foydalanish strategiyalari" mavzuidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani o'tkazildi. Unda Oliy Majlis Senatining Agrar, suv xo'jaligi masalalari va ekologiya qo'mitasi raisi o'rinbosari Sayyora Abdikarimova ishtirok etdi.

Anjumanning asosiy maqsadi barqaror rivojlanish sharoitida yer resurslaridan samarali foydalanish masalalarini ilmiy jihatdan tahlil qilish, sohadagi dolzarb muammolarga zamonaviy yechimlar ishlab chiqish hamda ilmiy tadqiqot natijalarini amaliyotga keng joriy etishdan iborat.

Tadbirda sohadagi dolzarb masalalar keng muhokama qilindi. Xususan, sog'lom tuproqni asrash va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, yer degradatsiyasi hamda sho'rlanishga qarshi innovatsion yechimlar ishlab chiqish, agrar tarmoqda sun'iy intellekt va masofadan zondlash texnologiyalarini joriy etish, shuningdek, iqlim o'zgarishi sharoitida "yashil" agrotexnologiyalarni rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Tadbir yakunida barqaror rivojlanishni ta'minlash, yer resurslaridan oqilona va samarali foydalanishni takomillashtirish, sohadagi mavjud muammolarga samarali yechimlar topishga qaratilgan muhim takliflar bildirildi.

Tashabbuskor yoshlar saralandi

Oliy Majlis Senati huzuridagi Yoshlar parlamenti tomonidan Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati (GIZ) bilan birgalikda tashabbuskor yigit-qizlar o'rtasida "Barqaror tinchlik uchun yoshlar harakati" tanlovi va o'quv seminari tashkillashtirildi.

Seminar

Ikki bosqichda o'tkazilgan tanlovda 100 nafardan ortiq yoshlar qatnashish uchun ariza topshirdi. Saralash bosqichlari yakuniga ko'ra, hududlarda jamoa bilan ishlash, mahalliy darajadagi muammolarga amaliy yechim topish hamda yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishga qaratilgan tashabbuslarni ilgari sura oladigan 15 nafar ishtirokchi saralab olindi.

Uch kun davom etgan intensiv seminar mashg'ulotlarida ishtirokchilarning huquqiy savodxonligi va ijtimoiy mas'uliyatini oshirishga alohida e'tibor qaratildi. Tajribali ekspert va trenerlar tomonidan yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish, bolalarga nisbatan zo'ravonlikka qarshi kurashishning psixologik va huquqiy jihatlari bo'yicha tushunchalar berildi.

Shuningdek, bugungi axborot makonida dolzarb sanalgan mediasavodxonlik, manipulyativ kontentlar va feyk xabarlarini aniqlash usullari yuzasidan mahorat darslari tashkil etildi.

Loyiha doirasida ishtirokchilar guruhlarga bo'lingan holda o'z hududlaridagi dolzarb muammolarga yechim bo'ladigan loyihalarni ishlab chiqdi. Jumladan, nogironligi bo'lgan yoshlarni qo'llab-quvvatlash, mediasavodxonlikni rivojlantirish, giyohvandlikning oldini olish hamda kitobxonlikni targ'ib qilish yo'nalishlaridagi loyihalar taqdim etildi.

O'quv-seminar yakunida muvaffaqiyatli qatnashgan yoshlarga tashkilotchilar tomonidan maxsus sertifikatlar va esdalik sovg'alar topshirildi.

BO'LG'USI TAHLILCHILAR ANJUMANI

Oliy Majlis Senatining Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo'mitasi raisi o'rinbosari Odiljon Mamatkarimov Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida "Siyosiy tahlilchi kadrlar tayyorlashning dolzarb masalalari" mavzuidagi sharqshunos tahlilchilarning birinchi respublika forumida qatnashdi.

Ta'lim

Tadbir ishtirokchilari siyosiy tahlil yo'nalishida kadrlar tayyorlashning bugungi holati, mavjud muammolar va istiqbolli yo'nalishlarni muhokama qildi.

Forum davomida qatnashchilar o'zaro fikr almashib, siyosiy tahlil bo'yicha zamonaviy yondashuvlarni joriy etish, ilmiy

tadqiqot faoliyatini rivojlantirish hamda amaliy ko'nikmalarni mustahkamlash masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Tadbir yakunida kelgusida hamkorlikni kengaytirish, yosh tahlilchilarni qo'llab-quvvatlash va ularning salohiyatini oshirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

"Xalq so'zi".

Davlatimiz rahbari farmoniga ko'ra, 2027-yildan har 2 yilda bir marta 12-avgust – Xalqaro yoshlar kuni arafasida "Avlodlar muloqoti" xalqaro yoshlar kongressi o'tkaziladi.

Xalq so'zi Narodnoe slovo MUASSISLAR: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMATOV 2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 429. Buyurtma G-1242. 23 407 nusxada bosildi. Hajmi – 2 tabaq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda. TELEFONLAR: Devonxonxa 71-259-74-51; Kotibxona 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.

Tahriyotga kelgan qo'lyozmalar taqdir qilinmaydi va mulligiga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahriyotda kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahilalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 55-uy. Navbatchi muharrir F. Bozorov. Musahhah S. Islomov. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonada manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni – 03.00 Topshirildi – 03.10 1 2 3 4 5 6